

JANUBIY O'ZBEKISTON DOSTONCHILIGIDA KONFLIKT

Dusyorova Klara - Qarshi davlat universiteti
“Adabiyotshunoslik” kafedrasи o’qituvchisi

«O’zbek xalq qahramonlik eposi» kitobida o’zbek dostonchiligining tarixi, badiiyati, ahamiyati, nazariy masalalari, yirik xalq baxshilari faoliyatini yoritib bergan folklorshunosligimiz asoschisi H.T. Zarifov keyinchalik faxr bilan shunday deydi: «Xalq baxshilarining o’zlariga xos poetik yo’llar bilan bir-birlaridan ajralishlarini men fanda dostonchilik maktablari deb ataganman».

Olimlarimiz o’zbek folklorshunosligining salkam bir asrlik tarixi davomida respublikamiz hududida asrlar bo’yi faoliyat ko’rsatib kelgan BulunG’ur, Qo’rG’on, Narpay, Xorazm, SHahrisabz, Qamay, SHerobod, Janubiy Tojikiston kabi qator dostonchilik maktablarini aniqladilar. Ularning repertuarlaridagi o’nlab dostonlarni yozib oldilar, keng kitobxonlar ommasiga etkazdilar va ilmiy tadqiq etdilar. O’zbek folklorini olamga tanitdilar.

Professor To’ra Mirzaev «dostonlar gultoji» deb ta’riflagan monumental «Alpomish» eposi ming yilligining jahon miqyosida nishonlanishi bu fikrimizning isbotidir. Bunday ulkan yutuqlarda uch jihatni alohida ta’kidlash zarur:

1. Dostonchilikdagi asriy an'analar va xalq baxshilari faoliyati tufayli o’nlab badiiy yuksak eposlarning avloddan-avlodga o’tib kelgani.
2. Folklor jonkuyarlari va folklorshunos olimlar xizmati tufayli boy oG’zaki merosimizning saqlanib qolgani. O’zbek dostonchilik maktabları kabi Hodi Zarif asos solgan o’zbek folklorshunosligi maktabi ham jahon miqyosida tanilgani.
3. Mustaqillik sharofati tufayli o’zbek folklori namunalarining ham jahon xalqlari ma’naviy mulkinining tarkibiy qismiga aylanib borayotgani.

Janubiy O’zbekiston dostonchilik maktabi vakillarining badiiy mahorati masalasi ham hanuzgacha mahsus tahlil ob’yekti bo’lmagan. Bu maktabning ayrim vakillaridan yozib olingan an'anaviy dostonlarni yaxshi bilgan, shu teritoriyada barhayot baxshilar bilan uchrashgan folklorshunoslardan X. Zarif, T. Mirzyev, M. Saidov, M. Murodov, B. Sarimsoqov, A. Qahhorovlar o’z tadqiqotlarida badiiy mahorat masalasida qisman to’xtaladilar. Xususan, professor M. Saidov Go’ro’g’li turkumi dostonlarida obrazlar talqini haqida ancha mufassal va to’g’ri ilmiy fikrlar bayon qiladi. Folklorshunos Abdumo’min Qahhorov tadqiqotlarida esa Surxondaryo va Qashqdaryoda yaratilgan yangi dostonlarda shakl va mazmun mutanosibligi, konflikt, an'anaga munosabat va navotarlik ko’rinishlarning ba’zi bir tomonlari tahlil etiladi. Xalq baxshilari epik repertuarlarini maxsus ilmiy tahlil etgan T. Mirzayev Janubiy O’zbekistonning dostonchiligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi. “Bu maktab (Shahrisabz dostonchilik maktabi)ga mansub baxshilar dostonlarini sho’x, quvnoq, ko’tarinki ruhda kuylashlari,

kuylarning yoqimliligi bilan ajralib turadilar... Qamay dostonchilik maktabi vakillari xalq dostonlarining lirik yo'nalishiga alohida e'tibor bergenlar. Ular poetik formalar taraqqiyotida Sherobod dostonchilik maktabi vakillariga yozib olingan asarlar Bulung'ur, Qo'rg'on, Narpay baxshilarik uylagan dostonlarga nisbatan badiiy jihatdan ancha kambag'al bo'lishiga qaramay, boshqa joylarda noma'lum bir qator syujetlarni, ayrim qadimi motiv va tasavvurlarni saqlab qolganligi bilan ahamiyatlidir". Ushbu fikr ko'rsatilgan monografi, yaratulgunga qadar yozib olingan an'anaviy dostonlar uchun to'g'ridir. Chunki saksoninchi yillarning boshigacha biz ishimizda fikr yuritayotgan an'anaviy dostonlarining aytuvchilari Qosir baxshi Rahimov, Qora va Chori Umirovlar, Chorshanbi baxshi Rahmatullayev, Qahhor baxshi Qodir o'g'llaridan asarlar yozib olinmagan, yozib olinganlari esa ayrim kishilarning shaxsiy arxivida yohud O'zbekiston fanlar Akademiyasi Adabiyot institutining folklor arxividan boshqa ayrim arxivlar bo'lgan. Biz Sherobod poetik maktab vakillari bo'lgan ushbu baxshilardan yozib olingan an'anaviy dostonlardan qirqdav oshiqrog'ini o'rganib, tanishib, barchasida Bulung'ur, Qo'rg'on, Narpay baxshilari kuylagan dostonblardan "badiiy jihatdan ancha kambag'alligi"ni kuzatmadik. Shuningdek, Qamay dostonchilik maktabi vakillari badiiylikda Sherobod dostonchilik maktabi vakillariga nisbatan olg'a ketganini ham ko'rmasdik. To'g'ri, Qamaylik dostonchilar orasida Abdukarim Juyruq, Mulla Holnazar, Hidir shoir kabi mashhur kuychilar bo'lgan, ammo ular ijro etgan dostonlardan namunalar to'liq yozib olinmaganligi sababli matnning qay tarzda badiiyatl ekani daliliga ega emasmiz. Mulla Xolnazar yozdirib qoldirgan "Nuralining yoshligi" dostonining bir o'zi Qamaylik baxshilarga xos badiiy mahoratni ko'rsatishdan ko'ra diniy, kitobiy dostonlarga xususiyatlarni aks ettiradi. Yana shu qo'shimcha qilish mumkinki, qissaxon bo'lgan Bozor Omonov va Sa'dulla Tohirovlarni yozib olinib nashr etilgan "Nuralining yoshligi" dostonining har ikki variant Qamay maktabining so'nggi badixago'y baxshisi Xazratqul Xudoyberdiyevdan yozib olib chop etilgan "Og'a Yunusning olib qochilishi" dostonidan badiiylikda ustundir. "Og'a Yunusning olib qochilishi dostonida" Dialog, monologlarda bandning to'rtlik shakli nihoyatda muqimlashgan bo'lib, birinchi uch misra o'zaro qofiyalanib, to'rtinchi satr esa bandlararo takrorlanadi." deyilgan hulosa o'z aksini topmagan. Demak, keying izlanishlar, 60-90-yillarda yozib olingan dostonlar Janubiy O'zbekistonning poetic maktablari orasida Sherobod dostonchiligi asosiy o'rin egallashi badiiyatda ham ustun ekanligini ko'rsatdi. Ma'lumki, dostonchilik maktablari haqida hozirgacha fikr yuritgan barcha tadqiqotchilar asosan, to'rt san'atkor Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil shoir Yo'ldosh o'g'li, Po'lkon shoir va Islom shoir Nazar o'g'lidan yozib olingan va chop etilgan dostonlarga asoslanadilar. Xuddi shu nuqtai nazardan yondashib, birgina Qodir Rahimov repurtuarlaridan yozib olingan an'anaviy va zamonaviy dostonlarni badiiy talqin qilsak, Sherobod dostonchilari ham epos an'analariga riosa qilishda, saqlash va bizgacha yetkazib

kelishda mahoratli ekanligiga guvoh bo'lamiz. Xatto, bordi-yu Qamay dostonchilik maktabi vakillari "poetic formalar taraqqiyotida dostonchilik maktabi vakillariga nisbatan olg'a ketganlar." Degan fikrning to'g'riliqa Bozor Omon o'g'lidan yozib olingan "Nuralining yoshligi" dostonigagina asoslanib ishonsak, biz bu variant Qamay maktabiga Sherobod maktabi vakillaridan o'tgan degan fikrdamiz. Bundan xulosa shuki, Qamay maktabiga xor deb ko'rsatilgan ushbu holat Sherobot dostonchiliga mansubdir. Bunga to'liqroq ishonch hosil qilish uchun Qodir baxshidan yozib olingan "Nurali va 500 mulabachcha", "Jorxun maston", "Zaydinoy", "G'o'pponoy", "Malla savdogar"(1 versiya), "Malla savdogar"(2 versiya), Qahhor baxshi aytgan "Malla savdogar", "Ollonazar Olchinbek" dostoniga, Qora Umirovdan yozib olingfan "Nurali va Semurg", Qodir baxshining shogirdi Ro'zi Qulto'rayev Ergash Jumanbulbul aytgan "Oysuluv" dostoni syujeti asosida uni o'ttiz marta kengaytirib qayta ijro etgan. "Oysuluv" dostoni kabilarni qiyoslash kifoya qiladi. Shuning uchun Qodir baxshi va uning shogirdlari ijro etgan dostonlarni ta'kidlayapmizki, Qodir baxshi Sherobod va boshqa dostonchilik maktablarining barcha an'analarini o'rgangan, bobosi Turdi shoir, tog'asi Rajab ormurod o'g'li, Umir shoir Safarovga shogird bo'lishdan tasshqari, Qashqadaryo va Surxondaryoning taniqli baxshilari Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Yusuf O'tagan o'g'li, Chori Qiyom o'g'li, Mamarayim baxshi, G'oyim baxshi, Normurod baxshi, Eshqobil Qo'shoq o'g'li kabi keksa avlod dostonchilar davrasida ham ko'p bolgan, goho soz va so'zda bellashgan, ularning repertuarini, do'mbira chertish mahoratini o'rgangan. Shuningdek, T.Mirzayevning quyidagi fikri Qodir baxshi repertuarining ham boyib borishining ko'rsatishi uchun mos keladi: "Yozma adabiyot namunalari bilan tanishish, boshqa folkloridan syujetlar o'zlashtirish, qissaxonlikni tinglash va kitobxonlar yig'inida ishtirok etish... traditsion dostonlar motivlarini yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda yangicha kombinatsiyalarda berish asosida yoki o'zlari yashab turgan davrni ijtimoiy-maishiy masalalarini tsvirlovchi yangi-yangi asarlar yaratishga intilish, ertak syujetlarini qayta ishslash kabilar epic repertuarining boyib borishida asosiy omil hisoblanadi.

Darhaqiqat, Qodir baxshi shu yo'llar bilan repertuaridagi an'anaviy dostonlar sonini yetmishdan oshirgan. Hatto, Mahtumquli kinosini ko'rib, uning she'rlarini o'qib shu nomli doston ijro qilgani yuqorida fikrni yana bir bor isbotlaydi. Eng xarakterlkisi shu yo'llar, izlanishlar bilan Sherobod dostonchilik maktabida ham yuz berayotgan eposning so'nish jarayonini sekinlashtirishiga o'zi teng avlod baxshilar va shogirdlar orasida dostonchilik an'analarini davom ettirishga, badiiy mahoratga hissasini qo'shdi. Folklorshunos B. Sarimsoqovning bir suhabatida aytganidek, epic konsepsiyaning bir sharti Janubiy O'zbekiston aholisining dostonchilikka ixlosi, qiziqishi hozirgi kunda so'nish jarayonini saqlab turgan asosiy kuch bo'lib, baxshilar bu sohada faoliyat ko'rsatayotgan ekan, biz aynan barhayot dostonchilik

repertuarlaridan yozib olingan namunalar misolida badiiy mahoratning ayrim jihatlariga to'xtalamiz.

Darvoqe, "Xalq dostonlarida xalqimiz hayoti bilan bevosita aloqalar bo'lgan Vatan mudofaasi mavzusi, xalq qahramonlarining oljanob hislatlarini ochish, sof sevgini ulug'lash, tarixiy hoidisalarni nasllarga yetkazish ko'pgina dostonlarda ajoyib badiiylik bilan go'zal va va nafis formada amalga oshirilgan." Dostonlardagi badiiylik epic an'analarga munosabat syujet rivoji, kompozitsion yaxlitlik, umumiy o'rinalar tasviri, obrazlar talqini, saj' qo'llash mahorati turli adabiy usullar, lirk chekinmalar, epic shartlilik, stilistik formulalar, badiiy-tasviriy vositalardan foydalanish kabilarda namoyon bo'ladiki, ularning har birini Janubiy O'zbekiston dostonchiligidagi alohida boshqa hududlardagi poetic maktablarga qiyoslab o'rganish orqaligina aniq xulosalar chiqarish mumkin. Mazkur ishda Qashqadaryo, Surxondaryo dostonchilik maktablaridagi an'anaviy dostonlarni kuylashda konflikt, dostonlardagi nazmiy qism va undagi o'zgarishlar, portret yaratish va ba'zi badiiy-tasviriy vositalarning o'mi haqida qisman to'xtalamiz.

Dostonlarda umum o'zbek dostonlaridagi kabi bir qancha syujet liniyalari o'zaro bog'lanib, yaxlit kompozitsiyani vujudga keltiradi. Asar voqealarining rivojlanishini, qiziqarliligini ta'minlaydigan konflikt Sherobod dostonchiligidagi avvalo ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:

I.Oddiy konflikt.

II. Murakkab konflikt

Ushbu ikki turga ajratganda, har ikkiholatda eposda hech qachon ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar ijobjiy va salbiy kuclar kurashi oson ko'chmasligini nazarda tutgan holda, bir dostonda romantic dostonlarga xos konfliktning bir yohud barcha turi ishtirok etishiga asoslanadi. Xalq eposida konflikt masalasini tadqiq etgan. Sobitova qahramonning funksiyasiga qarab konfliktning uch xil ko'rinishda bo'lishi ko'rsatadi, ya'ni:

1. Allegorik konfliktlar.
2. Ijtimoiy- siyosiy konfliktlar.
3. Maishiy xarakterdagи konfliktlar.

Biz Janubiy O'bekiston dostonchilik mакtabida mavjud bo'lgan dostonlarda konfliktning to'rtinchи ko'rinishda ham namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bu turni shartli ravishda hayotiy-tabiiy konfliktlar deb atashni lozim ko'rdik. Chunki ushbu holatda epos qahramoni inson yohud ot, qush kabilar tabiat kuchlari-tovlар, zovlar, bo'ronlar, daryo, dengiz kabilar bilan yuzma-yuz keladi va ular qarshiliginini matonat bilan yengib o'tadilar. Biz konfliktni oddiy va murakkab turlarga ajratganda, shu to'rt ko'rinishning ishtiroki va o'rniga asoslandik. Ko'pchilik dostonlarda asar konfliktning asosini shu turdan bittasi hosil qiladi va voqealar rivoji asosan, bir konflikt bilan hal etiladi. Jumladan "Malla savdogar" variantlari, "Nurali va 500 mullabacha", "Oysanam"

dostonlari ushbu xarakterda bo'lib, ularni oddiy konflikt asosida yaratilgan deyish mumkin. Ammo "Tarkibadaxshon" tipidagi dostonlarda konfliktning har to'rt turi uchrab, ularning biri tushib qoldirilganda, qahramon o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olmaydiki, bu konfliktlar tuzilmasi murakkab konfliktni yuzaga keltiradi.

"Tarkibadaxshon" dostonida oilaviy-maishiy konfliktni Ahmad qari yuzaga keltiradi. Avazxonning doimiy raqibi bo'lgan Ahmad qari ushbu dostonda avvalgilaridek Avazni qoralash yoki malomat qilish bilan chekinmaydi, balki uni mahv etish uchun o'zi bel bog'laydi. Chunki Avazning-asrandi farzandining taxtga vorisligi Ahmadning Avazga husumatini kuchaytiradi, oilaviy-maishiy konfliktni ijtimoiy-siyosiy konflikt darajasiga ko'taradi. Ahmad feodal jamiyatga xos toj-taxt uchun kurashni o'zida mujassamlashtirgan arbob sifatida maydonga chiqadi. Ukasi Yusufbekni Chambil taxtiga chiqarmoqchi bo'lgan Ahmad unga maqsadini shunday bayon etadi:

Xotin qilib ham olasan,
Avazning erka qizini.
Qariganda olayin,
Avazning Uzumko'zini.
Tortib bog'latgan qo'lini,
Nurali erka ulini,
Qo'l qilib toza ishlatgin,
Qirqiblar olib tilini.

Ammo mard Yusufbek "Avaz bilsang elu xalqning oridir", -deya epik qahramonni himoya qilgach, Ahmad hiyla yo'liga o'tadi va Avazni qo'riqlab borib kelamiz deb, Avazga qo'shiladi hamda Avazga o'zini mehribon ko'rsatib, avvalgi gunohlarini yuvish uchun kelganini aytadi. Biroq qo'rqaqligi tufayli Ko'ktovdayoq, G'irot va Avaz kirib ketgan g'ordan kirolmay ukasi bilan qolib, epik qahramonning qaytishini kutadi.

Dostondagi ijtimoiy-siyosiy konfliktning yana bir ko'rinishi umumo'zbek dostonchiligidida xos bo'lib, Avazning boshqa mamlakatini ham bosqinchilarning jabr-zulmidan qutqazishi, o'sha yerda osoyishtalik o'rnatish, shu orqali o'z yurti tinchligini ham mustahkamlashi bilan ham bog'liqdir. Avaz Qoratovdan xushsiz yotgan Qahhorxonga duch keladi va uni o'ziga keltirib, voqeani bilgach, janga kirib, Shirmon elini Xinsila mamlakatining podshosi Jijibek bosqinidan ozod qiladi, Qahhorxon bilan do'stlashadi.

Uchinchi konflikt esa antrologik va zoolatorik xarakterda bo'lib: a) Avaz va Mashar maston; b) Avaz va Bashar jodugar; v) Avaz va ajdarho; g) Avaz va Hafsa dev; d) Avaz va Nabot jodugar; e) Avaz va devlar; j) Avaz va Oq dev shoh o'rtasida yuz beradi. Dostonning boshlanishida e'tibor shu konfliktga qaratiladi. Go'ro'g'lining tush ta'birini o'zlari aytib, o'zlari Avazning safarga chiqishdan og'ir ruhiy azobda qolgan Misqol va Yunus pari navbatma-navbat qahramon yo'lidagi mashaqqatli to'siqlarni bayon qiladi.